www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR TASNIFI VA MOHIYATI

Shavkatov Hojiakbar Avazbek o‘g‘li

Andijon viloyati yuridik texnikumi 2- kurs o‘quvchisi.

Telefon: +998(90)765 75 79

Elektron pochta manzili:hojiakbarshavkatov24@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistondagi yuridik xizmatini takomillashtirish va tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tavsifi va yuridik xizmat sohasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, yuridik xizmatning demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi roli hamda ahamiyati. Mamlakatimizda kuchli huquqiy davlat barpo etishda, qonun va adolat ustuvorligiga erishishda yuridik xizmatning muhim roli.

Kalit so‘zlar:cАннотация: В этой статье Дается описание нормативно-правовых документов, регулирующих совершенствование и регулирование юридической службы в Узбекистане, а также сведения о сфере юридической службы.

О дополнительных мерах по дальнейшему расширению деятельности центров юридических услуг, роли и значения юридической службы в становлении демократического правового государства и формировании гражданского общества.Важная роль юридической службы в становлении сильного правового государства в нашей стране и достижении приоритета права и справедливости.

Ключевые слова: Юридическая услуга, нормативно-правовой документ, юридический отдел, юрист, юрисконсульт, юрист, юрисконсульт, судебный консультант, юридическая экспертиза.

Abstract: In this article A description of the legal documents regulating the improvement and regulation of the legal service in Uzbekistan and information about the field of legal service is given.

On additional measures to further expand the activity of legal service centers, the role and importance of legal service in the establishment of a democratic legal state and the formation of a civil society. The important role of the legal service in establishing a strong legal state in our country and achieving the priority of law and justice.

Key words: Legal service, regulatory legal document, legal department, lawyer, legal consultant, lawyer, legal consultant, judicial consultant, legal expertise.

Yurtimizda yuridik xizmat faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko‘plab normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib ushbu huquqiy asoslarga tayanib va amal qilib faoliyat olib bormoqda.

Avvalo huquqshunos o‘zi kim degan savolga to‘xtalib o‘tamiz.

Huquqshunos – yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan, yuridik bilimli, qonunchilikni biluvchi, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxs.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Mamlakatimizda kuchli huquqiy davlat barpo etish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlashda yuridik xizmat muhim rol o‘ynaydi. Yuridik xizmatning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlikka keng sharoit yaratib berilayotganligi bois yildan-yilga xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni ko‘payib, yuridik xizmat faoliyat ko‘rsatadigan obyektlar qamrovi ham ortib bormoqda. Bu esa yuridik xizmat sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirib borishni hamda ularni turli hayotiy va ishlab chiqarish holatlarida huquqiy vositalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi. Shuning yuriskonsult sifatida o‘z mehnat faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan mutaxassislar dastlab ko‘plab qiyinchiliklar va to‘siqlarga uchraydilar. Ularni bartaraf etishga esa har doim ham bilim va tajribalari yetishmaydi.

Bu bo‘yicha mamlakatimizda

YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZLARI FAOLIYATINI YANADA KENGAYTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizning barcha tuman va shaharlarida Adliya vazirligi tizimida yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatmoqda. Bu borada, yuridik xizmat ko‘rsatiladigan davlat idoralarining markazlarga yuboriladigan hujjatlari loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish va qabul qilish jarayonlarini elektron shaklga o‘tkazuvchi “E-huquqshunos” elektron tizimi yaratildi, ish yurituvi to‘liq raqamlashtirilib, qog‘ozbozlikka barham berildi. 207 ta tuman va shaharlardagi 2 mingdan ortiq davlat organlarida huquqni bir xil qo‘llash amaliyoti shakllandi hamda aholiga va bevosita ijrochilarga qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini yetkazish va tushuntirishning yangi bo‘g‘ini yaratildi. Shu bilan birga, yuridik xizmati mavjud bo‘lmagan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa, o‘rta va quyi bo‘g‘inda huquqiy jihatdan ta’minlash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko‘rsatish maqsadida:Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5168-son qarori bilan respublikaning barcha tuman va shaharlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining huzurida yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari (keyingi o‘rinlarda — Markazlar) tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-89-son Farmoniga muvofiq Markazlar tuman (shahar) adliya bo‘limlari tuzilmasi va bo‘ysunuviga o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

1. Adliya vazirligining 2022-yil 1-avgustdan boshlab bosqichma-bosqich Markazlar tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida yuridik xizmat bilan ta’minlanmagan davlat organlari va tashkilotlarining quyidagi

tuman (shahar) bo‘linmalariga yuridik xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin:

Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi;

Qishloq xo‘jaligi bo‘limi;

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Turizm va madaniy meros bo‘limi;

Oila va xotin-qizlar bo‘limi;

Yoshlar ishlari bo‘limi;

Davlat soliq inspeksiyasi;

Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi;

Davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari;

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

Davlat ko‘p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar.

2. Quyidagilar:

Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida yuridik xizmat bilan ta’minlanmagan davlat organlari va tashkilotlari tuman (shahar) bo‘linmalari, davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ko‘p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalari qamrab olinishi reja-grafigi 1-ilovaga muvofiq;

Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatining qamrovini oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda:

2022-yil 1-mayga qadar “E-huquqshunos” elektron tizimini texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va maslahatlar berib borish maqsadida “call-markaz” faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

2022-yil 1-avgustga qadar mazkur qarorning 2-bandi ikkinchi — sakkizinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) bo‘linmalarini “E-huquqshunos” elektron tizimiga shartnoma asosida ulash va ularga xizmat ko‘rsatish;

Bosqichma-bosqich davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ko‘p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalarni “E-huquqshunos” elektron tizimiga bepul asosda ulash va ularga xizmat ko‘rsatish choralarini ko‘rsin.

4. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Adliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi “UNICON-SOFT” MChJ takliflariga asosan “E-huquqshunos” elektron tizimini Markazlar va ular yuridik xizmat ko‘rsatadigan davlat organlari va tashkilotlari tuman (shahar) bo‘linmalari faoliyatiga joriy qilishda “E-huquqshunos” elektron tizimidagi ma’lumotlarni saqlash va ulardan xavfsiz foydalanish hamda tizimning yuqori tezlikda ishlashini ta’minlash maqsadida “UNICON-SOFT” MChJni tegishli server va boshqa zarur qurilmalar bilan ta’minlab borsin.

Belgilansinki, mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

6. Adliya vazirligi 2022-yil 1-dekabrga qadar viloyat darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga Markazlar tomonidan yuridik xizmat ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5168-son qaroriga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

Belgilansinki, 3-ilova 2022-yil 1-avgustdan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib adliya vaziri R.Q. Davletov hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.X. Shermatov belgilansin.

Yuridik xizmatning demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi roli hamda ahamiyati quyidagi mezonlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchisi, yuridik xizmat huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi — milliy qonunchilik bazasining sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlarini qonunchilik bilan uyg‘unlashtiradi.

Ikkinchisi, yuridik xizmat huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipi bo‘lgan qonun ustuvorligining oqilona ta’minlanishiga xizmat qiladi. Davlat hokimiyati organlarida, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi palatalaridagi yuridik xizmatlar tomonidan qonun hujjatlari ekspertizadan o‘tkazilishi jarayonida ularning Konstitutsiyaga va boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi, huquqiy normalar o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblik, tizimlilik ta’minlanadi, aniqlangan ichki ziddiyatlar va parallelliklar bartaraf etiladi. Shuningdek, yuridik xizmat boshqaruv organlari faoliyatida ham qonuniylikning ta’minlanishiga, ular tomonidan chiqarilayotgan normativ-huquqiy huhujjatlarning konstitutsiya va qonunlarga mosligi, yuridik texnika talablariga muvofiqligini tekshirishda muhim o‘rin tutadi.

Uchinchisi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatuvchi yuridik xizmat xodimlari o‘z mehnat jamoasida qonunchilikni muntazam targ‘ib qilish, xodimlari yuridik adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta’minlash, ularga huquqiy maslahatlar berish orqali jamiyat huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuridik xizmatning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlikka keng sharoit yaratib berilganligi bois, yildan-yilga xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni ko‘payib, yuridik xizmat faoliyat ko‘rsatadigan obyektlar qamrovi ham ortib bormoqda. Bu esa ushbu munosabatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, bu sohada tayyorlanayotgan kadrlarga yuridik xizmat fanining predmetini chuqur o‘rganishni ta’minlash, ularni turli hayotiy va ishlab chiqarish holatlarida huquqiy vositalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘zida ifoda etadigan alohida darslik yaratishni taqozo qiladi. Ushbu darslik yuridik oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda yuridik xizmat faoliyatining mazmun-mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan mavzular o‘z o‘rnini topgan. Darslikda fanning predmeti, ahamiyati, ushbu soha bo‘yicha qonunchilikning rivojlanishi, tizimi va tuzilishi huquqiy maqomi, turli darajadagi organlarda yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari kabi mavzular atroflicha yoritilgan. Ushbu darslik oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar tayyorlashga oid davlat standartlari hamda mazkur fanning o‘quv rejasi va dasturi talablari asosida yozilgan. Mazkur darslik mamlakatimizda ilk bor tayyorlangan bo‘lib, muallif darslik bo‘yicha bildiriladigan, shu jumladan tanqidiy fikr-mulohazalarni ham minnatdorchilik bilan qabul qilib, ularni kelgusi nashrlarda inobatga olishga harakat qiladi. Mamlakatimizda kuchli huquqiy davlat barpo etishda, qonun va adolat ustuvorligiga erishishda yuridik xizmat muhim rol o‘ynaydi. Yuridik xizmat ko‘magida fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati yuksaltirilib boriladi, davlat hokimiyati va

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

boshqaruvi organlari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qonun ustuvorligi ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-son Farmoniga muvofiq davlat organlari va tashkilotlariga markazlashgan yuridik xizmat ko‘rsatish tizimini joriy qilish maqsadida:

1. Adliya vazirligi va Moliya vazirligining 2021-yil 1-oktabrdan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzurida yuridik xizmat ko‘rsatish markazlarini (keyingi o‘rinlarda — Markazlar) respublikaning barcha tuman (shahar)larida tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar Markazlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

Yuridik xizmat ko‘rsatiladigan davlat organlari va tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda — davlat tashkilotlari) faoliyatini huquqiy jihatdan ta’minlash;

Davlat tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko‘rsatish;

Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish;

Davlat tashkilotlarining mulkiy hamda boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘z vaqtida, har tomonlama va samarali himoya qilinishini ta’minlash;

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning loyihalaridagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga ko‘maklashish.

3. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ayrim davlat tashkilotlarining tuman (shahar) bo‘linmalarida 2021-yil 1-oktabrdan boshlab jami 1 182 ta yuridik xizmatlar shtat birliklari 1-ilovaga muvofiq qisqartirilsin hamda bo‘shatilayotgan shtat birliklari hisobidan Markazlar faoliyatini tashkil etish uchun 1 056 ta shtat birliklari 2-ilovaga muvofiq ajratilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan yuridik xizmat ko‘rsatiladigan davlat organlarining tuman (shahar) bo‘linmalari va davlat tashkilotlarining ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Adliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-oktabrdan boshlab davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha ma’lumot va jarayonlarni to‘liq elektron ravishda yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va amalga oshirish imkonini beruvchi “E-huquqshunos” elektron tizimini bosqichma-bosqich joriy etsin. Bunda, “E-huquqshunos” elektron tizimi quyidagi asosiy imkoniyatlarga ega bo‘lishi nazarda tutilsin: Elektron tizimga ichki buyruq, shartnomalar va boshqa yuridik tusdagi hujjatlarning namunalarini kiritish hamda mavjud hujjatlar loyihalari namunalaridan e tizimdan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan shaxsiy kabinetga kirish, har qanday hujjat loyihasi va unga tahliliy materiallarni tayyorlash, qayta ishlash va xulosa olish uchun Markazlarga yuborish; Markazlarning mas’ul xodimlari tomonidan, tegishli xulosa tayyorlash, hujjatlarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda, elektron tizimga biriktirish hamda o‘zaro hujjat almashtiriladi. Elektron tizimdan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan Markazlardan ijobiy xulosa olinganidan so‘ng takrorlanmaydigan maxsus raqam berish va elektron tarzda qabul qilish

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

hamda ushbu hujjatlarni avtomatik tarzda izchil ketma-ketlikda raqamlashtirish, davlat tashkiloti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni tizimga biriktirish, ularni tahrir qilish, takliflarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash hamda yuborish, targ‘ibot tadbirlari bilan bog‘liq materiallarni elektron tizim orqali almashtiriladi.

XULOSA: Davlat tashkilotlariga talabnoma, sudlarga ariza yoki da’vo arizalarini kiritish uchun ularning loyihalari tayyorlansa, tahrir qilish va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlab kiritilsa yuridik xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlarga nisbatan o‘tkaziladigan tekshirishlarda masofaviy tarzda ishtirok etish hamda ularga huquqiy maslahatlar beriladi. Markazlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan kelgan murojaatlarni o‘rganib chiqish va ularga asoslantirilgan javoblar yuborishda ishtirok etish belgilan. Markazlar tomonidan davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish “E-huquqshunos” elektron tizimidan foydalangan holda inson manfaatlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjat to‘grisdagi qonuni.